

**ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATSIYA****Allambergenova Nodira**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E-mail: [Farzona@mail.ru](mailto:Farzona@mail.ru)**Jadgarova Farida**

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti.

E-mail: [jadgarovafarida@gmail.com](mailto:jadgarovafarida@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada adabiyot fanini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirilgan, integrativ yondashuv asosida o'qitish bo'yicha amaliy tavsiyalar hamda adabiy ta'limida fanlararo integratsiyaning nazariy jihatlarini xususida mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, adabiyot va musiqa fanlarining integratsiyalashishi natijasida ta'lim jarayonining samarali olib borilishi haqida fikr yuritilgan

**Kalit so'zlar:** integratsiya, fanlararo aloqa, ta'lim, adabiyot, san'at, musiqa.

**ИНТЕГРАЦИЯ В УРОКИ ЛИТЕРАТУРЫ**

**Аннотация:** В статье представлены практические рекомендации по преподаванию литературы в интегрированном формате с другими дисциплинами, а также теоретические аспекты междисциплинарной интеграции в литературном образовании. Также рассматривается эффективная реализация образовательного процесса в результате интеграции литературы и музыки.

**Ключевые слова:** интеграция, междисциплинарная коммуникация, образование, литература, искусство, музыка.

**INTEGRATION IN LITERATURE LESSONS**

**Abstract:** The article presents practical recommendations for teaching literature in an integrated manner with other disciplines, as well as theoretical aspects of interdisciplinary integration in literature education. It also discusses the effective implementation of the educational process as a result of the integration of literature and music.

**Keywords:** integration, interdisciplinary communication, education, literature, art, music.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kun adabiyoti har bir o'qituvchidan o'tkir sinchkovlik, ayniqsa, yuzaga chiqayotgan ilmiy kashfiyot va yangiliklardan xabardor bo'lishni, umuman, keng qamrovli ish olib borishni talab etadi. Bu esa milliy adabiyotimizning boy ma'naviy xazinasini chuqur o'rganishimiz, uni anglashimiz uchun zamin yaratadi. Adabiyot darslarining samaradorligiga erishishda fanlararo integratsiyaning o'rnini belgilash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri

bo‘lib kelmoqda. Negaki, olamdagi barcha narsa-hodisalar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Dunyo bilimlarini o‘rganish manbayi bo‘lgan ta‘lim jarayonida ham barcha fanlarni o‘zaro aloqadorlikda integrativ o‘qitish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review).** Keyingi yillarda ta‘limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko‘plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, ona tili va adabiyot darslarini integrativ o‘qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta‘lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar atroflicha o‘rganildi. Xususan, A.G‘ulomov, H.Ne‘matov, B.Ziyommuhammadov, B.Abdullayeva, B.To‘xliyev, Q.Husanboyeva singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili va adabiyot ta‘limidagi o‘rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi.

Integratsiya uzluksiz ta‘limni yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda integratsiya atamasining ma‘nosiga to‘xtalib o‘tsak. “Integratsiya lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib “qo‘llash”, “birlashish” ma‘nolarini anglatadi. Ma‘lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo‘lgan materiallarni ma‘lum maqsad asosida qo‘llab, birlashtirib o‘rganishni talab qiladi.

Integratsiyalashgan ta‘lim va fanlararo aloqa bir-birini to‘ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o‘quvchining ma‘lum bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o‘quv fanlari orasida o‘rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi.

Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya‘ni umuman fanlar, o‘quv fanlari, ularning bo‘lim va mavzulari bo‘yicha olingan bilimlariga tayanilgan holda o‘rganilgan masalaga xos bo‘lgan yetakchi g‘oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir“ [1.28].

Fanlararo aloqa asosida tashkil qilingan dars o‘quvchining emotsional tuyg‘ularining yaxshi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunda o‘rganilayotgan mavzu xoh u epik asar bo‘lsin, xoh lirik asar o‘quvchiga tushuntirishda asardagi voqea-hodisalar tabiat tasviri, matnning ohang va ritm jihatdan tushuntirilsa mavzuni anglashi osonlashadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish masalasiga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Y.A.Komenskiy grammatika va falsafani, falsafa va adabiyotni, D.Lokk esa, tarix bilan geografiyani o‘zaro aloqada o‘rganish haqida fikr yuritgan. I.Gerbert, A.Disterveglar ham o‘z vaqtida fanlar o‘rtasidagi chegaralarni kamaytirish, ularni o‘zaro aloqada o‘rganish bo‘yicha tadqiqot olib borgan. XIX-XX asrlar orolig‘ida A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov va A.P.Pavlovlar tomonidan kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikrini muhokama qilgan.

Milliy o‘quv dasturida ham bu masala yechimiga jiddiy e‘tibor qaratilganligi, “2020-2025-yillarda ijod maktablari faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, ijod maktablari o‘quvchilarining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida o‘zbek va dunyo adabiyoti, o‘zbek va dunyo kinomotografiyasi, o‘zbek va dunyo tasviriy san’ati, o‘zbek va dunyo mumtoz musiqasining eng mukammal asarini bilishi nazarda tutilgani, 2019-2020-o‘quv yilida Davlat test markazi imtihonlari savollari tarkibiga: tarix va geografiya fanlaridan yozuvsiz xarita, jadval, rasmi test topshiriqlari qo‘llanilganligi; abituriyentlarning test topshiriqlarini tez anglay olishi, fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida endilikda yana ona tili va adabiyot, chet (ingliz, nemis, fransuz) tillari, biologiya, kimyo fanlaridan ham holatni ifodalash uchun rasmi test topshiriqlari shakllantirilayotganligi ushbu izlanishlarning natijasi sifatida baholash mumkin.

**Tahlil va natijalar. (Literature review).**A.Zunnunov va boshqalar “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasida ta’kidlaganidek: “Ijtimoiy fanlar o‘z tarkibiga ona tili, adabiyot, tarix, musiqa, tasviriy san’at fanlarini qamrab oladi va ularni o‘zaro birlashtiradi. Ammo ularning har biri o‘z tadqiq etish manbayi va usuliga ega. Shu sababli, maktabda ularni o‘rganishda o‘quvchilarning bu fanlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni, har biriga xos xususiyatlarni, har birini o‘rganish usullarini bilib olishlariga erishish o‘qituvchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo‘yiladi. Ijtimoiy fanlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilmasa, o‘quvchilar ongida har bir fan bo‘yicha bir-biridan ajralgan tushunchalar hosil bo‘ladi, ular tarixiy, falsafiy, adabiy dalillar va qonuniyatlar haqida bir butun bilimga ega bo‘lmaydilar. Bu esa o‘quvchilarda ijtimoiy hayot va san’at voqealarini mustaqil aniqlash masalasini va izchil dunyoqarashini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi” [3.15].

San’at insonning ruhiy kechinmalarini eng nozik jihatlarigacha qamrab oladi. U faqatgina hissiyotlarga ta’sir etish bilan cheklanmay, balki insonning irodasi va niyatini ham aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan san’atning o‘z-o‘zini anglashni chuqurlashtirish, axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda dunyoqarashni rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Insonni ihartomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida san’at asarlaridan foydalanish eng samarali vositalardan biri sanaladi. Hozirgi kunda uzluksiz ta’lim tizimida san’atning an’anaviy yo‘nalishlarini o‘rgatish amaliyoti davom ettirilmoqda. Har bir san’at yo‘nalishining o‘ziga xos manbalari bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy unsur mavjud. Bu unsur “Obraz” dir (rus.obraz– aks)” [5.206].

Obraza tamasi hayotiy mazmun va estetik jozibani o‘zida jamlagan tushuncha bo‘lib, inson tafakkurining mahsuli u orqali inson o‘z ichki kechinmalari, dunyoqarashi, orzu-umidlari va qadriyatlarini ifodalaydi. Shu boisdan obraz san’atning barcha ko‘rinishlarida – adabiyotda, tasviriy san’atda, musiqada va teatrdan muhim o‘rin egallaydi. Obraz tomoshabinni yoki kitobxonni asar mazmuniga olib

kiradi u ichki kechinmalar va teran fikrlar yuritishga undaydi. San'atning tarbiyaviy va estetik vazifalari aynan obraz orqali namoyon bo'ladi. Bolalar va yoshlarda go'zallikni his qilish, ezgulik va yovuzlikni ajratish, murakkab hayotiy holatlarni ang'ay olish qobiliyati san'at asarlaridagi obrazlarni idrok etish orqali rivojlanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida obrazni tahlil qilish, tushunish va yaratishga alohida e'tibor berish zarur.

O'quvchi, tomoshabin yoki tinglovchi badiiy obraz muallifning tasavvur va fikrlari asosida yaratilishini anglashi, adabiyot, tasviriy san'at hamda musiqa asarlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning izchil va mantiqiy rivojlanishini sezishi va tushunib yetishi zarurdir. Adabiy obrazlarda aks ettirilgan hodisalar o'quvchilar uchun hayotda uchratgan voqealarning umumlashtirilgan shakli, hayotiy tajribaning ifodasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Adabiyotni musiqa va tasviriy san'at bilan birgalikda o'rganish busan'at yo'nalishlarining umumiy mohiyatidan kelib chiqadi. Chunki bularning barchasi hayotni obrazlar orqali ifodalaydi va insonga estetik hamda ma'naviy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotda obraz so'z orqali yaratilganligi uchun u boshqa san'at turlariga nisbatan hayot va inson mohiyatini kengroq va chuqurroq yoritish imkoniyatiga ega. Musiqada esa tuyg'ularning ifoda tili ohang hisoblanadi. Unda eng muhim omil bir-biriga bog'lanib ketadigan intonatsiyalar orqali shakllanuvchi kuy bo'lib, u inson qalbiga izchil ravshda ta'sir ko'rsatadi. Kuy inson ruhiyatida ma'lum o'zgarishlar uyg'otib, tanani bo'shashtiradi, asab tizimini tinchlantiradi, ichki muvozanatni tiklaydi. Ba'zan kuy ohangi, ya'ni undagi mazmunga qarab odam beixtiyo rfikr va hissiyotlar dunyosiga sho'ng'iydi. Shunday kuylar borki, insonda ilhom uyg'otadi, kuch-quvvat baxsh etadi, og'irkechinmalarni yengillashtiradi

Adabiyotshunos Naim Karimov she'r, shoir va musiqa haqida fikr bildirar ekan, lirika va musiqani obrazli aytganda, san'atning Fotima va Zuhrolari, uning egizak farzandlariga qiyoslaylaydi. Darhaqiqat, o'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyati muhim ekanligi haqida mutafakkirlarimiz alohida ta'kidlashgan. Shu bilan birqatorda musiqiy atamalarni, usullarni sharhlashga harakat qilganlar. Jumladan, so'z mulking sultoni Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqani chuqur o'rganib, shunday degan edi: "Musiqaga jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi".

Haqiqatdan ham adabiyot va musiqa insonning axloqiy estetik hissiyotlariga kuchli va betakror ta'sir etish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham bu fanlarni o'qitishda eng, avvalo, tarbiyaviy maqsadlar bosh vazifa hisoblanadi. Ma'lumki, adabiyot fani birinchi navbatda ona tili fani bilan ajratib bo'lmaydigan darajada yaqin aloqadorlik mavjud. Negaki, adabiyot so'z san'ati sifatida ona tiliga tayanadi, undan quvvat oladi. Ona tili darslarida badiiy matnlarning til xususiyatlarini, adabiyot

saboqlarida esa soʻzlarning maʼno turlarini integrativlik asosida oʻrganish darslar samaradorligini oshiradi. Ona tili saboqlarini adabiy matnlar vositasida oʻqitish zarur. Adabiyot darslarida olingan nazariy maʼlumotlardan ona tili darslarida foydalanish bilimning mustahkamligini taʼminlaydi. Muayyan bir fanni oʻqitishda oʻrganilayotgan mavzuning tabiatidan kelib chiqqan holda boshqa oʻquv fanlari bilan turli darajada integratsiya amalga oshiriladi. Mutaxassislarning taʼkidlashlaricha, oʻquv fanlari oʻzaro aloqadorlik darajasi boʻyicha:

- a) bir tomonlama:
- b) ikki tomonlama:
- d) koʻp tomonlama integratsiyalanishi mumkin.

Bir tomonlama integratsiya bir xilturdagi oʻquvfanlar mavzusini yoritishga xizmat qilishi jihatlaridan foydalanish kerak boʻladi. Masalan, adabiyot darslaridagi biror mavzuni tushuntirishda qozoq yoki qoraqalpoq adabiyotidagi ayni shunga oʻxshash mavzudan foydalanilsa, bir tomonlama integratsiya yuzaga keladi. Agar adabiyot darsidagi biror mavzuni oʻrgatishda ona tili, tarix, musiqa yoki boshqa ijtimoiy fanlar bilan bogʻliq maʼlumotlar bogʻlab oʻrgatilsa, ikki tomonlama integratsiya paydo boʻladi. Adabiyot darslaridagi qaysidir mavzuni tushuntirishda ikkitadan ortiq fanga tegishli maʼlumotlardan foydalanilsa, koʻp tomonlama integratsiya hosil boʻladi.

Ilmiy tadqiqotlarga koʻra, oʻqituvchilarining fanlararo aloqalarni amalga oshirishda quyidagilarni bilishi va ularga amal qilishi talab etiladi: aloqador fanlarning mazmuni va tuzilishiga tegishli tarkibiy qismlarni ajratib olish, aloqador fanlarni oʻqitish vaqtida oʻzaro muvofiqlashtirishni amalga oshirish, fanlararo aloqadorlik shakllantirishda, qonunlar va nazariyalarni oʻrganishda uzluksizlikni taʼminlash, oʻquvchilarda oʻquv faoliyatiga bogʻliq koʻnikma va malakalarini shakllantirishni umumiy tushunchalar, asosiy qonun va nazariyalarni oʻrganish jarayoni bilan bogʻlanishini taʼminlash, oʻrganilgan aloqador obyektlar orqali turli tabiat hodisalarining oʻzaro bogʻliqligini yoritib berish, aloqador fanlarning oʻquv axborotlarini tahlil qilish, oʻquvchilarda fanlararo bilim va koʻnikmalarning shakllanganlik darajasi, fanlararo aloqalar asosida qoʻllaniladigan oʻqitish usullari, oʻquvmashgʻulotlari shakllari, oʻqitish vositalarining samaradorligi, obyektlararo aloqalarni amalga oshirishga yordam beradigan maqsad vazifalar tizimini shakllantirish tarkibi, fanlararo aloqalarni amalga oshirishga qaratilgan taʼlim-tarbiya ishlarini rejalashtirish, fanlararo aloqalarning taʼlimiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini aniqlash, fanlararo va integrativ mazmunli darslar, seminarlar va boshqa mashgʻulotlarni loyihalash, fanlararo bilim va koʻnikmalarni shakllantirishda oʻquvchilar duch kelishi mumkin boʻlgan qiyinchiliklar va xatolarni oldindan koʻra olish, darslarning uslubiy jihozlarini loyihalash, fanlararo aloqalar asosida oʻqitishning eng ratsional shakllari va usullarini tanlash, oʻquv va bilim olish

faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini rejalashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini loyihalash, tashkiliy komponent maqsad va vazifalarga, ularning individual xususiyatlariga qarab o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish, fanlararo aloqalar asosida o‘quvchilarning fanlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish, fan to‘garaklari va fakultativ mashg‘ulotlariga doir ishlarni tashkil etish va boshqarish, o‘quvchilar faoliyatini kuzatish usullaridan foydalana olish, muloqat psixologiyasining kommunikativ komponenti, integratsiyalashgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari, o‘quvchilarning ruhiy xolatlari, o‘quvchilar jamoasida psixologik vaziyatlarni boshqarish, sinfda o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, fanlararo aloqalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida tegishli fan o‘qituvchilari bilan shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishi lozim.

**Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations).** Integratsiya go‘yoki bilim berishda zarur emasga o‘xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo‘l bo‘lib, u orqali o‘quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san‘at, tarix, musiqa, odobnoma va adabiyotning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta‘lim, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini o‘stiradi, ularning faolligini oshiradi. O‘quvchilarni ijod qilishga o‘rgatish, izlanishga yo‘naltirish, tasavvur va fantaziyani hosil qilishda ingegratsiyadan foydalanish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media nashriyoti, 2018.
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.